

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 711.45.94(1-925.2)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MUSIQIY QADRIYATLARNING ESTETIK TA'SIRCHANLIGINING O'ZGARIB BORISHI VA QADRSIZLANISHI JARAYONI**ПРОЦЕСС ИЗМЕНЕНИЙ И ОБЕСЦЕННИВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ МУЗЫКАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ****THE PROCESS OF CHANGES AND DEPRECIATION OF THE AESTHETIC EFFECTIVENESS OF MUSICAL VALUES UNDER GLOBALIZATION****Azimjon Xojimamatov**

Farg'ona davlat universiteti, "San'atshunoslik" fakulteti "Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni, musiqa va meros tushunchalari borasida Sharq olimlarining qarashlari maqolada o'z aksini topgan.

Аннотация

В статье отражен процесс изменения и девальвации эстетической эффективности музыкальных ценностей в условиях глобализации, взгляды восточных учёных на понятия музыки и наследия.

Abstract

In this article, the process of changing and devaluation of the aesthetic effectiveness of musical values in the conditions of globalization, the views of Eastern scholars regarding the concepts of music and heritage are reflected in the article.

Kalit so'zlar: musiqa, milliy meros, kuy, ohang, madaniy muhit, kompozitsiya, ritm, temp, dinamika, takt o'lchovi, radi, signal

Ключевые слова: музыка, национальное достояние, мелодия, тон, культурная среда, композиция, ритм, темп, динамика, тактовый размер, радиусы, сигнал

Key words: music, national heritage, melody, tone, cultural environment, composition, rhythm, tempo, dynamics, time signature, radii, signal

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda milliy musiqiy merosni asrash va musiqiy tafakkurini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy yuksalish jarayonlarida musiqa san'atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, musiqaning an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, milliy musiqiy merosni asrashga doir ta'limiy-tarbiyaviy jarayonini ham takomillashtirish, unga yangicha yondashuvlarni olib kirish, xorij tajribasini o'rganishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik ishlar ham olib borilmoqda. Bu orqali mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Musiqa jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Ma'naviy yangilanish jarayonlarida musiqa san'atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, musiqaning an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarini yanada ravnaq toptirish maqsadida bir qator dasturlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, shuningdek, musiqa san'atini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy anjumanlar o'tkazildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'kidlash lozimki, musiqaning inson estetik dunyoqarashiga ta'siri, voqeyelikni estetik o'zlashtirishdagi ahamiyati, shaxsda yuksak badiiy-estetik didni shakllantirish, jamiyat a'zolarining estetik ideallarini tarbiyalash bilan bog'liq ishlarning umumnazariy masalalariga yangicha yondashuvlar shakllandi. Endilikda musiqa nafaqat san'at turi balki, u tarbiya vositasi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kuchga aylandi. Musiqaga shu nuqtai-nazardan qaralganda, bugungi kunda uning falsafiy mohiyatini o'rganish va estetik mazmunini tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortganligini ko'rish mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, musiqa va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini estetikaning umumnazariy masalasi sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu holat:

birinchidan, bugungi kun o'zbek an'anaviy musiqa san'atining estetik xususiyatlarini falsafiy nuqtai nazarda ilmiy tahlil etish va uni zamonaviy musiqa tamoyillari asosida boyitishni talab etmoqda. Chunki, musiqa va uning estetik tabiati ham tarbiya, ham ijtimoiy taraqqiyotni barqarorlashtiruvchi muhim vosita sifatida mafkuraviy jarayonlarning markazida turadi;

ikkinchidan, an'anaviy musiqa san'atining yoshlar estetik tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy o'rganish, uning jahon musiqiy merosidagi o'rnini tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarimizning nafis va go'zal jihatlari aks ettirishga doir qarashlarni tizimlashtirish zarurdir. Zero, hozirgi paytda o'zbek xalq an'anaviy musiqiy merosi o'zining go'zal estetik xususiyatlari bilan jahon musiqiy madaniyatida munosib o'ringa ega bo'lib bormoqda;

uchinchidan, globallashuv davrida xalq musiqasini ijro etish jarayoni va amaliyoti tubdan o'zgarib bormoqda. Biroq, uni faqat ohanglar tizimi sifatida o'rganish muammoga bir tomonlama yondashishni keltirib chiqaradi. Aslida o'zbek an'anaviy xalq musiqasi o'zida ohang, kuy va nolani uyg'unlashtirishi bilan go'zallikni namoyon ettiradi va insonga estetik zavq beradi;

to'rtinchidan, san'at turlari ichida o'zbek xalq musiqa san'ati o'ziga xos estetik shakl va mazmunga ega. Uning o'rnini boshqa san'at turlari bosolmaydi: u nodir va betakroridir. U ohang birikmalari, shakl va janrlar, murakkab usullar majmuasi xalq poetik ijodiyotini, turli kuylar boyligini muayyan tartibga soladi. Shuning uchun ham u xalq estetik madaniyatining yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Musiqaning shu xususiyatini estetik mezonlar asosida tadqiq etish masalasi falsafa ilmidan hanuz mavhumligicha qolmoqda;

beshinchidan, o'zbek xalq an'anaviy musiqasi hisoblangan maqomlar, marosim musiqalari, folklor qo'shiqlari o'ziga xos badiiy-estetik janr tizimidir. Ammo, sobiq sho'rolar davri tadqiqotchilari o'zbek milliy musiqasining estetik mazmuniga va estetik faoliyat turi sifatidagi mohiyatiga bir tomonlama yondashib keldilar. Bu holat pirovardida o'zbek xalqining estetik qadriyatida bo'shliqni paydo qildi. Endilikda milliy musiqa merosimizni nafaqat tarixiy ahamiyatini balki uning estetik munosabatlardagi nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda.

Marosim madaniy hodisa sifatidagi ahamiyatli bo'lib, ijtimoiy-falsafiy hamda axloqiy-estetik jihatdan qimmatga ega hisoblanadi. "An'ana", "odat", "marosim"ni bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa sifatidagi konsepsiya ekanligini tahlil qiladi, shu bois an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo'lishi mumkin.

Marosim musiqasini xalqning estetik qadriyatiga aylangan ma'naviy hodisa hisoblanadi. Buni u quyidagicha asoslash mumkin: a) marosim tarix sinovlaridan o'tib, xalqning umummanfaatlariga mos kelgan, xalqning orzu-intilishlarini tarannum etganligi bilan muhim estetik qadriyat; b) marosim orqali inson ma'naviy olamni hissiy-emosional idrok etadi hamda voqeyelikni badiiy obrazlarda namoyon qiladi; v) marosim olamni go'zallik, ulug'vorlik, uyg'unlik kabi nafosat mezonlariga asoslangan holda tasvirlash imkoniyatiga ega.

O'rta asrlarda Sharq musiqashunos olimlari tomonidan maqom yo'llarining 12 tasi mavjudligini ta'kidlab o'tilganligini qayd etib, bu maqomlar quyoshning yillik harakati yo'lida bosib o'tadigan o'n ikkita yulduzlar turkumiga qiyoslangan. Musiqa ilmiga oid tarixiy qo'lyozmalarda mazkur o'n ikkita maqomning ijro etilishiga muayyan tartib berilgan. Jumladan: Rahoviy maqomi - erta tongdan quyosh chiqqunga qadar; Husayniy maqomi - kunning birinchi yarmida, posbon almashadigan vaqtda; Rost maqomi - tush paytida; Bo'slik va Ushshoq maqomlari - kechki paytda; Navo maqomi - kechqurun; Isfaxon maqomi - ertalabgacha ijro etilishi tavsiya qilingan.

O'zbek milliy musiqasining estetik funksiyalariga forig'lash, huzurbaxshlik hamda tarbiyaviylik xususiyatlar kiradi. "Forig'lash - musiqaning birlamchi estetik funksiyasi" nomli paragrafda tadqiqot muallifi musiqaning go'zalligi kuy, ohang va kompozitsiyaning uyg'unligida

namoyon bo'lishi, shuning uchun yaxshi musiqa qalbni poklashi, kayfiyatni ko'tarishi, insonni g'am-anduhdan, tushkunlik kayfiyatlaridan xalos etishi, nuqs va g'uborlardan forig'lashini ko'rsatib o'tgan holda, bunday holat falsafa ilmida "katarsis" ta'limoti orqali izohlanishini uqtiradi. Chunonchi, faylasuf olim Abdulla Sher Arastuning forig'lanish haqidagi ta'limotini tahlil qilib, unda mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbi salbiy hissiyotlardan forig'lanadi, natijada inson, bir tomondan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomondan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi, deydi: "Siz san'at asarini idrok etganingizdan so'ng mayda hislardan forig'lanasiz, ma'naviy jihatdan kechagiga qaraganda bir bosh yuksakka ko'tarilasiz. Arastu aytgan katarsis-forig'lanish mana shu. San'at ana shu forig'lanish vositasida insonni tarbiyalaydi. Forig'lanishning estetik mohiyati ana shunda".

Musiqa ning go'zalligi kuy, ohang va kompozisiyaning uyg'unligida namoyon bo'lishi, shuning uchun yaxshi musiqa qalbni poklashi, kayfiyatni ko'tarishi, insonni g'am-anduhdan, tushkunlik kayfiyatlaridan xalos etishi, nuqs va g'uborlardan forig'lashini ko'rsatib o'tgan holda, bunday holat falsafa ilmida "katarsis" ta'limoti orqali yoritib berish mumkin. Chunonchi, faylasuf olim Abdulla Sher Arastuning forig'lanish haqidagi ta'limotini tahlil qilib, unda mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbi salbiy hissiyotlardan forig'lanadi, natijada inson, bir tomondan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomondan, baxtsizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi, deydi: "Siz san'at asarini idrok etganingizdan so'ng mayda hislardan forig'lanasiz, ma'naviy jihatdan kechagiga qaraganda bir bosh yuksakka ko'tarilasiz. Arastu aytgan katarsis-forig'lanish mana shu. San'at ana shu forig'lanish vositasida insonni tarbiyalaydi. Forig'lanishning estetik mohiyati ana shunda".

MUHOKAMA

Tadqiqot doirasida Farg'ona davlat universiteti talabalari bilan sosiologik so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnoma natijalari yoshlarning o'zbek xalq musiqa san'atiga befarq munosabatda bo'lmayotganliklari, o'zlari xohlagan musiqani tinglash va tanlash imkoniyatiga ega ekanliklaridan dalolat beradi. Xususan, "Qanday musiqalarni ko'proq tinglaysiz?" - degan savolga 1008 ta respondentdan 214 nafari (21,23 %) - o'zbek mumtoz musiqalarini, 258 nafari (55,36 %) - zamonaviy o'zbek estradasini tanlaganligi yoshlarning milliy musiqiy merosimizga befarq emasligidan dalolat beradi. Shuningdek, yoshlarga "Musiqani tinglashga munosabatingiz?", degan savol berilgan. Mazkur savolning o'ziga xos muhim jihati shundaki, u bizga yoshlarning bo'sh vaqti musiqa bilan qay tariqa yaqin ekanligini ko'rsatib berdi. So'rovnoma taqdim etilgan 1008 ta respondentdan 400 nafari (39,68 %) musiqani - pleyer yoki uyali telefonda tinglayman, 308 nafari (30,56 %) - Radio va TV dagi musiqa bilan kifoyalanaman, 214 nafari esa (21,23 %) - maxsus disklar sotib olaman, deb javob berishgan. Demak, aksariyat yoshlar ko'chada, transportda yoki biror-bir yumush bajarayotgan paytda doimo musiqa bilan hamnafas ekanliklarini namoyon etdilar.

Milliy musiqa omillarining ma'naviy yangilanish jarayonlariga ta'siri ularning shaxs va jamiyat estetik madaniyatidagi o'rni muammolari, shuningdek, musiqa madaniyatini rivojlantirish orqali estetik didni yuksaltirish masalalari bilan bog'liq nazariy fikrlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Chunonchi, "Musiqada ohang omilining shaxs ma'naviy kamolotiga ta'siri" masalalarini o'rganib tadqiqotchi ta'kidlaydiki, musiqani idrok etish ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega. Negaki, estetik idrokni tadqiq etmay turib, musiqa nazariyasini to'laqonli tarzda anglab yetish hamda ohangning ijtimoiy-ma'naviy tabiatini ochib berish mumkin emas. Musiqani idrok etish masalasi bevosita shaxs estetik kamolotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, musiqiy idrokning o'ziga xos xususiyati:

- birinchidan, badiiy ijodning tabiatiga hamda san'atning ijtimoiylik mohiyatiga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi;

- ikkinchidan, estetik idrok qonuniyatlarini tadqiq qilish san'at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini to'laqonli tarzda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, ohang omili - musiqadagi falsafiy mohiyatni va estetik mazmuni ochib beradi. Bu jarayon idrok vositasida amalga oshadi.

Shuningdek, ovoz bilan ohangni qiyosiy tahlil qilib, har qanday ovoz insonga estetik zavq bera olmasligini tahlil qilishga harakat qilganmiz. Birinchidan - ovoz narsa-hodisaning shakl-shamoyili haqida dastlabki ma'lumotni beradi. Masalan, qurbaqaning ovozi uning ko'rinishini hayolimizda gavdalantirsa, odamning ovozi uning boshqa odamlardan ajratishimiz uchun ko'mak beradi. Momaqaldiroqnik esa tabiat hodisasi haqida tasavvurni paydo qiladi. Shuning uchun har uchala ovoz estetik zavqdan mahrumdir. Ikkinchidan, ovozning o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi "tovush", "shovqin",

PEDAGOGIKA

"sado" degan tushunchalarni anglatadi va u "o'pkadan chiqayotgan havoning urilishi bilan tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladi".

Chunonchi, Ibn Sino musiqaning kelib chiqishini inson nutqining boyligi bilan bog'laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag'rur so'zlayotganda, qat'iy jaranglaydi. U musiqani inson kayfiyatiga taqliddir, deydi. Sharq olimlari musiqani dastlab falsafa ilmlaridan biri, deb hisoblaganlar va qomusiy asarlar tarkibiga kiritganlar. Bunda ular shubhasiz, musiqaning badiiy - estetik kuchi va ijtimoiy tarbiyaviy rolini hisobga olgan edilar. Falsafaning "ayniyat" qonuni - obyektini o'z-o'zi bilan tengligini, o'xshashligini, aynanligini yoki bir necha predmetning tengligini, birdayligini ifodalaydi. Shu bois musiqaning asosiy komponentlarida falsafa, estetika fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagilar asosida qiyosiy tahlil qilish mumkin:

Birinchi komponent - kuy. Turli baland va uzunlikdagi tovushlarning ma'lum bir ritm va ladda badiiy holatda kelishi. Kuy va uning rivojlanish xususiyatlarining o'z falsafiy dialektikasi bor: xalq kuylari va maqomlarda (daromad) - ya'ni ashulaning boshlang'ich qismidan kuy avjga qarab rivojlanib boradi. Biz kuyda botiniy va zohiriy go'zallikni anglaymiz, demak kuyni falsafaning "imkoniyat" kategoriyasi bilan qiyoslash mumkin. Har bir narsa, hodisadagi taraqqiyot yo'nalishini ifodalovchi tushuncha imkoniyat ayni narsa - hodisaning rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida paydo bo'ladigan va rivojlana oladigan holatdir. Kuyning musiqadagi asosiy ifoda vositalari bu - lad, ritm, metr, tembr, garmoniya va boshqalardir.

Ikkinchi komponent - garmoniya. Ya'ni ohangdoshlik, bir yo'la eshitilgan bir necha tovushlarning o'zaro bog'lanishda kelishi. Masalan, Pifagorning turli ovozli tomonlarning kelishuvi umumbashariy hamohanglik ekanligi, yoki qadimgi xitoy falsafasidagi, koinotni har bir parchasi alohida ohang chiqaruvchi va birgalikda hamroz kuyni tashkil etuvchi nayga o'xshaydi, degan fikrlari alohida qimmatga ega. Falsafa fanida ham "garmoniya" muayyan tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan bir davrida o'zaro muvofiq, mutanosib, uzviy chambarchas bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha hisoblanadi.

Uchinchi komponent - ladlar. Turli balandlikda bo'lgan tovushlarning o'zaro aloqasi, beqaror tovushlarning bir "tonika"ga intilishi. Musiqada har bir lad ma'lum bir estetik kategoriyaning debochasidir. Masalan: "major" ladi ko'proq ko'tarinkilik, tantana va ulug'vorlik sari chorlasa, "minor" ladi ko'proq qayg'uqa, lirikaga, fojeaviylikka yetaklaydi.

Shuningdek musiqaning kompozisiya, ritm, temp, dinamika, takt o'lchovi kabi komponentlari falsafa fanining kategoriyalari bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Musiqiy komponentlarning barchasi yig'ilib, eng avvalo insonda ma'lum bir emosiya uyg'otadi. Emosiya borliqda sodir bo'layotgan hodisa va narsalarning shaxs uchun ahamiyatli jihatlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblansa, musiqa ana shu tizimidagi - "signal"dir. Musiqa - shaxs emosional sohasining tarkibiy qismlariga emosional tus, (ton) emosional holatlar, kayfiyat beradi ularni inson ichdan kechiradi. Demak musiqaga qarab inson tuyg'ulari o'zgarishi mumkin.

Nolaga kelsak, Yevropa musiqasida "interpretasiya" tushunchasi mavjud, u musiqa asarining ijodiy ijro etilishidagi talqinni anglatadi. Biroq, Yevropa musiqasida ijodiy erkinlik ma'lum bir nota yozuvi chegarasidagina ro'y beradi. Milliy musiqamizdagi nolani esa nota yozuvida deyarli aniq ifoda etib bo'lmaydi. Shuning uchun nolaning ijrosi - sof badiiy ijod jarayoni bo'lib, ijrochi nolani har safar birdek ijro etolmaydi, bu san'atkorning ijro vaqtidagi emosional, estetik holatiga bog'liq.

Nolaning ijrochiligida esa o'sha yarim ton yana bir necha bo'laklarga bo'linib ketadiki, ushbu jarayonni nota yozuvi aks ettirmaydi. Vaholanki, bu sof badiiy, estetik, ijodiy jarayondir, nolaning ijrochiligida falsafa fanining "vorsiylik" kategoriyasi ahamiyatlidir. O'zbek milliy musiqasi kuy, nola va ohangga asoslanishi bilan estetik qonuniyatga aylanadi. Bu estetik qonuniyat musiqaning o'ziga xos xususiyati bo'lib, ular asosida inson voqyelikni his etadi, u bilan estetik munosabatga kirishadi va voqyelikni badiiy obrazlarda aks ettiradi.

Milliy musiqaning badiiy-estetik idealni shakllantirish, shuningdek, musiqaning ijtimoiy-ma'naviy borliqdagi go'zallikni uyg'unlashtiruvchi, badiiy-estetik qadriyatlarni qaror toptiruvchi omil sifatidagi mazmuniga e'tibor qaratish ham lozim. Shunga ko'ra, musiqaning estetik madaniyatni qaror toptirishdagi vazifalarini quyidagi yo'nalishlar orqali izohlash mumkin:

1. Musiqa madaniyatining muhim subyektini hisoblangan estetik idealni shakllantirishdagi o'rni.
2. Yoshlarda musiqa tinglash madaniyatini shakllantirishning estetik ehtiyojga aylanishi.
3. Milliy musiqaning ma'naviy taraqqiyot va estetik madaniyat uchun zaruriyati.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida musiqaning rivoji ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

Birinchiidan, musiqa - nomusiqaviy sohalarda; canoatda ishlab chiqarishda, yangi texnologiyalarda rivojlanib bormoqda va bu rivojlanish doimiydir. O'rta asrlarda jahon dinlari o'z g'oyalarning ta'sir doirasini kengaytirishda san'at omillaridan foydalangan bo'lsalar, bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti davrida ham, bir qarashda san'atga umuman aloqasi bo'lmagan ulkan industriyalar ham o'z mahsulotlarini xalqqa ommalashtirishda musiqadan keng foydalanmoqdalar.

Ikkinchiidan, musiqa san'ati boshqa sohalarda ko'makchi ya'ni ommani jalb etish va idrokiga ta'sir etish vositasi bo'lsa, bugungi kunda uning o'zi ham ulkan industriyaga, "tovar"ga aylanib bormoqda.

Hozirgi paytda mavjud fonogramma bilan kuylash muammosini estetik va axloqiy jihatlarini alohida e'tibor qaratish lozim. San'atkor jonli ijroda har gal estetik zavq olib, ya'ni badiiy asarning yangi qirralarini ochib boraveradi. Jonli ovoz bilan kuylaganda tomashabin ham ma'lum darajada badiiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi. Tomashabin nafaqat iste'molchi, balki badiiy ijod jarayoni ishtirokchisiga ham aylanadi. Obyekt bilan subyektning estetik xususiyatlar, estetik faoliyat, estetik anglash qamrab oladi. Obyekt subyektda nafasatni idrok etilishini ta'minlovchi hissiy va intellektual murvatlarini o'zida mujassam etganlini bilan estetik munosabat yuzaga keltiradi. Bu o'rinda subyekt obyektidan nafaqat tashqi nafasatni anglaydi, o'zining ichki nafasat yoki subyektdagi nafasatni ham namoyon qiladi. Ana shu ikkinchi jihat estetik jarayonni vujudga keltirish xususiyatiga ega bo'lgan falsafiy hodisa voqeyelikni estetik anglash bilan belgilanadi. Tinglovchi qarshisida fonogramma bilan kuylanganida esa ushbu estetik jarayonlar kuzatilmaydi.

Shuningdek, hozirgi davr o'zbek milliy musiqasida yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator muammolarining yechimida falsafa fanining "inkorni-inkor" qonuni muhim ahamiyatga ega ekanligini va ushbu muammolar bugungi kunda "Axloq falsafasi" fani uchun ham dolzarb hisoblanadi. Musiqaning ma'naviy-estetik mazmuni yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etishida, insonning badiiy-estetik didini takomillashtirishda o'z aksini topadi. Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish orqali shaxs va jamiyat estetik madaniyatini yuksaltirishga bo'lgan e'tibor har ikkala jihatning uyg'unligiga asoslanadi. Demak, tovushlar tuyg'ular bilan hamohang bo'lsagina fazilatlarini shakllantiradi, kishi kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, insonning turmush tarzini aks ettiruvchi, uning estetik olamini ifodalovchi musiqa san'ati inson hayotiy a'mollarining ajralmas qismidir.

Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishning maqsadli yo'naltirilganligini milliy musiqiy merosni rivojlantirishdagi yuksak madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki, unda badiiy ijod, xususan musiqa san'ati vositasida yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Zero, musiqa insonning faqat hursandchilik kunlarida emas, balki boshqa estetik faoliyatida ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi, hayotga, yashashga, ijodga va go'zallikdan bahramand bo'lishga chorlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy san'at asarlari, xususan, go'zal musiqa umumbashariy tilga ega bo'lib, ular barcha xalq, elat va millatlarga tarjimonsiz badiiy zavq bag'ishlash xususiyatiga ega.

Musiqa shaxsning ijtimoiylashuvi, muayyan hodisa va holatlarini qayta tiklovchi, uning diqqatini jalb qiluvchi va boshqaruvchi, shuningdek kishilarning mehnat unumdorligini oshiruvchi xususiyatga ega. U so'zsiz va ko'rish imkoni bo'lmagandagi muloqotdir. Musiqa his qilish qobiliyatni tarbiyalovchi vosita. Undan aqliy va jismoniy kuchlarning o'zaro koordinasiya va integrasiya qilish vositasi, energiya manbai, haqiqatni yuzaga chiqaruvchi vosita, inson ongining transformasiyasi uchun qurol sifatida foydalanish mumkin. Va nihoyat, musiqa kishilarni koinot bilan bog'lovchi kuch hamdir. Bu ro'yxatni davom ettirish yoki har bir bandini kengaytirish mumkin, lekin eng muhimi shunchalar imkoniyatga ega bo'lgan musiqadek ijtimoiy hodisadan inson ongi va tafakkurini yuksak darajalarga olib chiqish uchun foydalanish darkor. Hamma davrda musiqa insonlarni eng yaxshi amallarga, buyuk ishlarga yo'naltira olgan, ayniqsa, yosh avlodni yurtiga, ona - Vataniga muhabbat ruhida tarbiyalaydigan vosita bo'lgan.

Ma'lumki, musiqaning turli janrlarini o'rganish, tarixi, nazariyasi, bugungi kundagi rivojlanish istiqbollari, alohida bastakorlar ijodini ilmiy tadqiq qilish shubhasiz musiqashunoslikning izlanish doirasiga kiradi. Demak, ajdodlarimiz merosini chuqur, ilmiy asosda o'rganish, milliy-musiqiy, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ma'naviy yuksak yoshlarni tarbiyalash jarayoni bilan bevosita bog'liq. Ayni vaqtda, mumtoz pedagogik an'analarni hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etish, jamiyat

PEDAGOGIKA

hayotidagi eng asosiy masala – yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda musiqa madaniyatining rolini aniq-ravshan belgilab berishdan iborat.

O'zbek xalq musiqasining estetik xususiyatlari va uning zamonaviy komil inson ma'naviyatini boyitishdagi ahamiyati hamda musiqada xalq qadriyatlarining in'ikosi estetika ilmi va nafosat falsafasida batafsil o'rganilmagan mavzulardan hisoblanadi. Shu ma'noda mazkur tadqiqot orqali musiqada xalq qadriyatlarining aks etishi hamda o'zbek xalq an'anaviy musiqasining inson ma'naviyatini yuksaltirishdagi tarixiy va zamonaviy tendensiyalarni yoritib berishga harakat qilindi.

Ma'lumki, o'zbek xalq musiqasi ham boshqa xalqlar musiqasi singari kishilarni g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bular orasida an'anaviy xalq musiqasi kishiga tez ta'sir etishi, oson qabul qilinishi va insonning tashqi olamga estetik munosabatini shakllantirish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, xalq musiqasi kuy-ohanglarning tabiiyligi va soddaligi bilan ham ajralib turadi.

Musiqa ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini aks ettirish imkoniyatiga ega. U bir vaqtning o'zida ham epik, ham lirik, ham dramatik ohanglarda jaranglashi bilan insonda estetik zavqni paydo qiladi. Ayniqsa, uning ifodali-obrazli tabiati ko'proq lirikaga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda, lirika musiqaning estetik asosini tashkil etadi. Shuningdek, musiqa inson estetik olamidagi ezgu orzu-umidlarni bevosita va bilvosita aks ettiradi; u insondagi eng yaxshi tuyg'u va fazilatlarini namoyish etishga qodir.

XULOSA

Shuni ta'kidlash kerakki, musiqa ijro etiladigan san'at hisoblanadi. U ijro jarayonidagina jonlanadi va "tilga kiradi". Xalq musiqa estetikasi esa "bastakor – ijrochi – tinglovchi" uyg'unligiga asoslanadi. Bu san'atning ham arxaik, ham an'anaviy, ham zamonaviy turlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, musiqa inson faoliyatining eng muhim sohalari bilan aloqaga kirishadi, mehnat jarayonlari va marosimlarida qatnashadi. Shu bois hozirgi davr musiqa madaniyatida ijrochilik san'ati musiqaviy ijodkorlikning nisbatan mustaqil ko'rinishini olgan. Musiqa maishiy hayotning muhim qismi sifatida odamlarni muayyan maqsad-niyatga safarbar etadi, ularni ezgu tuyg'u va g'ayrat atrofida birlashtiradi.

Musiqa insonni tarbiyalash vositasi bo'lib, unda yuksak fikr va tuyg'ular, nafosat, dil quvonchlari, armon va orzular hosil qiladi, insonning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, san'at garchand fandan ko'ra o'ziga xos usulda ko'zda tutgan maqsadi ham bir qadar boshqacha bo'lsa-da, ilm-fan bilan doimo uzviy bog'liq. Chunki, muayyan san'at asari ilmiy o'rganilayotgan falsafiy muammolarni ham qamrab oladi.

Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishning maqsadli yo'naltirilganligini xalqimiz estetik madaniyati, didi va tafakkurini rivojlantirishdagi yuksak madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki, unda badiiy ijod, xususan musiqa san'ati vositasida yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Zero, musiqa insonning faqat hursandchilik kunlarida emas, balki boshqa estetik faoliyatida ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi, hayotga, yashashga, ijodga va go'zallikdan bahramand bo'lishga chorlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy san'at asarlari, xususan, go'zal musiqa umumbashariy tilga ega bo'lib, ular barcha xalq, elat va millatlarga tarjimonsiz badiiy-estetik zavq bag'ishlash xususiyatiga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Шер, Баҳодир Хусанов, Эркин Умаров. Эстетика. Услубий қўлланма. –Тошкент: Университет, 2008.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. –Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2007, 3-жилд.
3. Исҳоқ Ражабов Мақомлар Тошкент Санъат нашриёти, 2006.
4. Фалсафа. Қомусий луғат. -Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти. "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004.